

## KAMBAG‘ALLIK TUSHUNCHASINING GENEZISI VA IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI

*Andijon “Sayyid Muhyiddin maxdum”*

*o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi mudiri,*

*Osiyo xalqaro universiteti 2-kurs magistranti*

***Maxmudov Rustam Jumanovich***

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kambag‘allik tushunchasi tarixiy va ijtimoiy-falsafiy jihatdan keng tahlil qilingan. Kambag‘allikning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy omillari, shuningdek, global miqyosdagi ta’sirlari chuqur o‘rganilgan. Muallif kambag‘allikning ijtimoiy adolatsizlik va iqtisodiy tengsizlikka asoslanganligini ko‘rsatib, bu muammoning jamiyat rivojiga salbiy ta’sirini ochib bergan. Shuningdek, kambag‘allikni kamaytirish uchun barqaror rivojlanish tamoyillari, adolat va tenglikka asoslangan yondashuvlar taklif qilingan. Ushbu tadqiqot kambag‘allikni chuqur tushunish va uning oqibatlarini bartaraf etish yo‘llarini topishga yo‘naltirilgan

**Kalit so‘zlar:** *kambag‘allik, genezis, ijtimoiy-falsafiy tahlil, iqtisodiy tengsizlik, adolat tamoyillari, jamiyat rivoji, barqarorlik, global muammo.*

**Аннотация.** В статье проведён широкий исторический и социально-философский анализ понятия бедности. Особое внимание уделено экономическим, культурным и социальным факторам, а также глобальному влиянию бедности. Авторы отмечают, что бедность коренится в социальном неравенстве и экономической несправедливости, оказывая негативное воздействие на развитие общества. В работе предложены подходы к снижению уровня бедности на основе принципов устойчивого развития, равенства и справедливости. Данное исследование направлено на глубокое понимание бедности и разработку путей преодоления её последствий.

**Ключевые слова:** бедность, генезис, социально-философский анализ, экономическое неравенство, принципы справедливости, развитие общества, устойчивость, глобальная проблема

**Abstract.** This article provides a comprehensive historical and socio-philosophical analysis of the concept of poverty. It explores the economic, cultural, and social factors contributing to poverty, along with its global implications. The authors highlight that poverty is deeply rooted in social inequality and economic injustice, negatively impacting societal progress. Approaches to mitigating poverty are proposed, emphasizing sustainable development, justice, and equality. This study aims to enhance understanding of poverty and identify effective strategies for addressing its consequences.

**Key words:** poverty, genesis, socio-philosophical analysis, economic inequality, principles of justice, societal development, sustainability, global challenge

Ijtimoiy munosabatlar tarixi jamiyat, ijtimoiy tuzilmalar, shuningdek, har qanday inson hayotida progress va regress jarayonlari o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi bilan ham ahamiyatli. Ma'lumki, jamiyatning rivojlanganlik darajasi odatda jamiyatdagi keksalar, bolalar, nogironlarning ahvoliga, ularning hayot darajasiga, bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan barcha odamlar toifasiga davlat va jamiyat a'zolarining qanday munosabatda bo'lishiga qarab belgilanadi.

Ijtimoiy zaif kishilarga, ya'ni keksalar, nogironlar, yolg'iz, nochor kishilar va aholining boshqa toifalariga yordam berish jamiyatning yuksak ma'naviyati va madaniyligidan dalolat beradi. Tarixiy taraqqiyotdan ma'lumki, yaqinlariga yordam berish, hamdard bo'lish va xayr-ehson qilish azaldan turli mamlakatlar xalqlariga xos fazilat hisoblangan.

“Avesto” kitobida zardushtiylik dinini qabul qilgan davlatlarning tuzilmasi va ijtimoiy siyosati haqida ma'lumotlar bor. Maqsadli yordam ko'rsatish usuli sifatida xayriya oddiy fuqarolar uchun o'zini tutishning xarakterli an'anaviy qoidalari

hisoblangan. “Ruhoniylar va diniy tashkilotlar zimmasiga esa, ijtimoiy xizmatlar - qo‘llab-quvvatlash, yordam ko‘rsatish, xayriya tadbirlarini o‘tkazish yuklangan. Hukmdorlar, boy fuqarolar, ibodatxonalar xayriya tushliklarini uyushtirgan hamda faqir va nochor hamyurtlariga xayr ehsonlar tarqatgan. Jamoalarda umumiy jamoaviy jamg‘arma hisobidan muhtoj oilalar moddiy qo‘llab-quvvatlangan”<sup>1</sup>.

O‘rta Osiyo xalqlari tarixidagi musulmonchilik davri ruhoniylarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini davom ettirdi va boyitdi. Masjidlarga hamda ijtimoiy-diniy hamjamiyatlarga ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ko‘mak berish vazifalari yuklandi. Ijtimoiy yordam turlari yakka tartibdagi va jamoaviy shakllarga ega edi. Xayr-ehson tarqatish, muhtojlarga moddiy yordam berish Islom dinidagi xalqlarning asosiy fazilarlaridandir. Hashar, jamoa yordami, tibbiy ko‘mak, maxsus bepul kasalxonalarni tashkil etish jamoaviy yordam shakllari orasida eng keng tarqalgan turi hisoblanadi.

Faqirlarni qo‘llab-quvvatlash, ularga yordam berish Islom falsafasida, Qur‘on, hadislarda keng va mufassal ravishda bayon qilinadi. Muruvvat, ojizlarga homiylik qilish, yiqilganni turg‘izib qo‘yish, boshqalar musibatiga sherik bo‘lish, bir shirin so‘z bo‘lsada xayr-sadaqa qilish, birov nochor qolgan paytda eng sevimli narsasini baxshida etish, o‘zi pishirgan ovqatning bir qismini yon qo‘shnisiga ilinish va hakazo kabi ezgu amallar son-sanoqsiz go‘zal fazilatlardan iborat bo‘lib, insonni inson sifatida tutib turgan eng muhim qadriyatlar hisoblanadi. Dunyoda nimaiki mavjud bo‘lsa, ularning hammasi inson uchun, uning ravnaqi, baxt-saodati uchun yaratilgan. Islom aqidasi ko‘ra inson ana shularga shukr qilib, bu dunyoda umrguzaronlik qilishi darkor. Bu haqda Qur‘oni Karimda shunday deyilgan:

الَّذِي جَعَلَ لَكُمُ الْأَرْضَ فِرَاشًا وَالسَّمَاءَ بِنَاءً وَأَنْزَلَ مِنَ السَّمَاءِ مَاءً فَأَخْرَجَ بِهِ مِنَ الثَّمَرَاتِ رِزْقًا لَّكُمْ فَلَا تَجْعَلُوا لِلَّهِ أَنْدَادًا وَأَنْتُمْ تَعْلَمُونَ ٢٢

<sup>1</sup> Ganieva M.X. “Ijtimoiy ish asoslari” metodik qo‘llanma. T.:2010, B- 9.

**“U sizlar uchun yerni poyandoz, osmonni “bino” qilib qo‘ydi va osmondan suv tushirib, u sababli sizlarga rizq sifatida mevalar undirdi. Bas, bilib turib Allohga (ibodatda) boshqa (soxta ma’buda)larni tenglashtirmangiz!”<sup>2</sup>.**

Shuning uchun inson taqvo ishlari bilan mashg‘ul bo‘lishi bilan birga, bu dunyoda savobli ishlar bilan shug‘ullanishi, solih amallarni qilishi, o‘zgalarga, ayniqsa, muhtoj va kambag‘allarga yordam berishi, ularga xayr-ehson qilishi, rahmdil bo‘lishi kerak. Umuman olganda, Qur’oni karim va hadislarida insonning bu dunyoda bajaradigan ishlari, insonparvarligi, xulq-odob qoidalariga rioya qilishi, xayrli ishlari to‘g‘risida ko‘p gapiriladi. Buni shundan ham bilish mumkinki, Qur’oni Karimda yaxshi ishlar va solih amallar - 31 marta, ezgu ishlar - 12 marta, xayr-ehson, sadaqa, mehr-shafqat - 40 marta, hidoyat yo‘li - 5 marta tilga olinadi<sup>3</sup>.

Mutafakkir Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarini odil podshohlarni vasf qilishdan boshlaydi. Uning fikricha, adolatli podshohning mamlakat va xaloyiq uchun foydasining chek-chegarasi yo‘q. Bunday podshoh, eng avvalo, xulq-odobda faqiru miskinlarga, aholining turli toifalariga birdek yumshoq va yaxshi muomalada bo‘ladi. Adolatli podshoh yuksak fazilatlar egasi bo‘lib, qo‘l ostidagilarga marhamatli bo‘ladi. Podshohning sa’y-harakatlari, tirishqoqligi tufayli mamlakatda tinchlik, osudalik hukm suradi, uning mehr-muruvvati va qo‘li ochiqligidan xalq to‘q, farovon yashaydi. “Ochlar ovqati muruvvat va baxshishi dasturxonidan, yalang‘ochlar kiyimi marhamat va ehsoni xazinasidan. Mamlakat bog‘ini obod qilishga yomg‘ir bulutiday serob va mamlakat ahli ko‘zini yoritishga xuddi oftob... Adolatli podshoh haqdan xaloyiqqa ko‘rsatilgan marhamatdir, mamlakat uchun tinchlik va farovonlik sababidir. Quyosh bilan bahor yomg‘iridek qora tuproqdan gullar ochar va mamlakat kishilari boshiga oltin bilan durlar sochar”<sup>4</sup>. Alisher Navoiy insonning qadr-qimmatini uning mol-mulki, zeb-ziynati, mansabi, ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki uning ma’naviy qiyofasi, axloqiy sifatleri, undan elga qanchalik naf tegishi bilan belgilanadi, deydi. Bu haqda

<sup>2</sup> Shayx Abdulaziz Mansur. “Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri”. “Baqara” surasi 22-oyat. – T.: TIU. 2012. B-4.

<sup>3</sup> Ezgulik yo‘lida. – T.: Cho‘lpon, 2006.B.70.

<sup>4</sup> Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. MAT. T.14. –Toshkent: Fan, 1998. B.12.

uning quyidagi soʻzlari tahsinga sazovordir: “Kishilarning soʻz bilan naf yetkazish qoʻlidan kelmasa, loaqal koʻnglidagi andishasi yaxshi boʻlishi kerak. Koʻngli odamlarning xursandligidan xursand boʻlishi lozim. Kimning xalq gʻamidan gʻami boʻlmasa, haqiqiy odam boʻlsang, uni odam dema”<sup>5</sup>.

Mutafakkir Abdurahmon Jomiy fikricha, yaxshi nom chiqarish uchun doimo xalqqa yaxshilik qilishi, ezgu amallar bilan mashgʻul boʻlishi zarur. Xoja Ahror Valiy hazratlari butun umri davomida xalq manfaati va mamlakat taraqqiyotini oʻyladi. Ul zot qurgʻochilik yillarida ayrim viloyatlarning xirojini toʻlab yubordi, kambagʻallarga osh-non, bugʻdoy tarqatdi. Masalan, “Maqomoti Xoja Ubaydulloh Ahror” da keltirilishicha, hazrati Eshon, yaʼni Xoja Ahror bir yili Toshkentga kelib musulmonlarni soliqdan ozod qilish uchun 250 ming dinorni Sulton Umarshayxga beradi. Boshqa bir paytda musulmonlarni soliqdan ozod qilish uchun 70 ming dinor ajratadi<sup>6</sup>. “Maqomot” da Xoja Ahrorning bunday xayr-ehsonlari, gʻariblarga yordami toʻgʻrisida misollar koʻplab keltiriladi. Ayni vaqtda mutasavvifning fikricha, odam oʻzini boylik egasi deb bilmasligi, boyligi bilan maqtanmasligi, kambagʻallarga past nazar bilan qaramasligi, kamtar boʻlishi, xalqqa yordam berishi, beva-bechora va muhtojlarga xayr-ehson koʻrsatishi darkor. Inson molu dunyosini oʻziga sarflashi, keyin, ortigʻini qarindosh-urugʻ, muhtojlarga tarqatishi kerak. Aks holda toʻplagan mol-mulki oʻzgalarga qolib ketadi. “Ajab andogʻ kishidinki, - deydi Xoja Ahror, - dangʻillama uy va qasrlar bino qilurlar va takalluflar birla yasharlar, erlar va hasratlar birla tashlab ketarlar. Va andogʻ kishidin ajabroqki, aning joyiga oʻltirur va gʻofil boʻlur. Va oʻz koʻzi birla koʻrgan holidaki, egasi qanday hasrat birla tashlab ketti, ibrat olmas”<sup>7</sup>.

Buyuk mutafakkirlarimiz asarlarida kambagʻal miskinlarga yordam koʻrsatish, ularni qoʻllab-quvvatlash masalasi hamisha diqqat markazida turadi.

<sup>5</sup> Alisher Navoiy. Hayratul-abror – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1989. B.67.

<sup>6</sup> Xoja Ubaydulloh Ahror. Tabarruk risolalar. –Toshkent: Adolat, 2007.–B. 109.

<sup>7</sup> Oʻsha asar. –B 238.

Jahon xalqlari tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, Rossiyada ijtimoiy himoya davlat tizimining qaror topishi 1701 yilda imperator Petr-I tomonidan "Avliyo Patriarx uylarida g'ariblar, kasallar va qariyalarni aniqlash to'g'risida" Farmoni qabul qilinishidan boshlandi. Imperator Petr-I davrida birinchi yetimxonalar paydo bo'ldi, jamiyatga davlat tomonidan faqirlarni ajratish va har bir alohida toifa buyicha g'amxo'rlik ko'rsatish bo'yicha choralar qabul qilish yuklandi<sup>8</sup>.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida XVI-XVII asrlarda ijtimoiy yordam davlat tizimi rasmiylashtirilishi davlat rolining oshishi va ayni bir vaqtda xristian cherkovi faolligining pasayishi bilan izohlanadi. Jumladan, 1529 yilda Germaniyada nochorlarga yordam to'g'risida Gamburg ustavi, 1682 yilda esa, davlat ta'minoti chora-tadbirlari to'g'risidagi farmon qabul qilinadi. Angliyada 1531 yilda "Nochorlarga yordam berish to'g'risida" qonun qabul qilinadi, shuningdek 1572 yilda faqirlarga yordam ko'rsatish uchun umummilliy soliq joriy etiladi. 1601 yilda Angliyada qabul qilingan "Kambag'allik to'g'risida"gi qonunda muhtojlarga moliyaviy yordam berishga urg'u berildi. Bu qonun mazkur sohada qonunchilikni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qildi va hukumatning inson ehtiyojlari uchun javobgarligi shakllanishida burilish yasadi.

Amerika ijtimoiy himoya tizimi aniq ifodalangan ikki yo'nalishga, ijtimoiy sug'urta tizimiga va ijtimoiy yordam tizimiga ega. Ijtimoiy sug'urta dasturlari yuqori ijtimoiy maqomga ega, chunki maoshga yashaydigan barcha kishilar muntazam ravishda tegishli fondlarga soliq to'laydi. Bu tizim iqtisodiy faol aholini asosiy ijtimoiy xavf-xatarlardan, keksalikdan, boquvchisidan ayrilishdan, nogironlikdan, kasalliklardan, ishlab chiqarish jarohatlaridan, ishsizlikdan himoya qiladi. Ijtimoiy yordam AQSHdagi ijtimoiy himoya tizimining ikkinchi yo'nalishi hisoblanadi. AQSHdagi yordam tizimi bir qancha yirik va ko'plab kichik dasturlarni o'z ichiga oladi. Ushbu dasturlar bo'yicha qashshoqlikda kun kechiradigan odamlar pul mablag'lari, oziq-ovqat, qarzga beriladigan uy-joy, ta'lim olish uchun yordam oladi va

<sup>8</sup> Кузьмин К.В., Сутырин Б.А. История социальной работы за рубежом и в России (с древности до начала XX века). - М.: Академический проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2002. - С. 11.

kasbga o'qitiladi. Rasman belgilangan qashshoqlik darajasidan past darajada kun kechiradigan kishilar ijtimoiy yordam olishga haqli. AQSH aholisining taxminan 12-15 foizi ijtimoiy yordam oladigan kishilarni tashkil etadi<sup>9</sup>.

1948 yilning 10 dekabrda BMT tomonidan qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"ning 1-moddasida ko'rsatilganidek, "Barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'ilganlar"<sup>10</sup>. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida ta'kidlanganidek, "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qiymati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi"<sup>11</sup>.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki 25 yilida ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi, kam ta'minlangan aholi qatlami degan iboralar bilan aholini muhtojlikdan himoya qilish choralari ko'rib kelindi. O'zbekiston tarixida ilk bor kambag'allik masalasi 2020 yilning 24 yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasida<sup>12</sup> ko'tarilib, mazkur mavzu ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy kun tartibiga aylandi. Kambag'allikni qisqartirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, kambag'allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil – bu insonning intilishi, o'z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakati bo'lishi, inson kapitalini rivojlantirish lozim.

<sup>9</sup> Ganieva M.X. Ijtimoiy ish asoslari. Metodik qo'llanma. –T.: 2010, B. 9.

<sup>10</sup> Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasiga sharhlar. T.: 1999. B. 38.

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: 2018.

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi (2020 yilning 24 yanvar).

Prezident Sh.Mirziyoyevning ko'rsatmasiga binoan, kambag'allikni qisqartirishning aniq dastur va mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy tajribani inobatga olgan holda, kambag'allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubi, ijtimoiy ta'minotning minimal standartlari va me'yoriy asoslarini puxta ishlab chiqish maqsadida qisqa muddatlarda Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro tashkilotlarining 14 nafar eksperti jalb qilindi. Mazkur ekspertlar bilan birgalikda yuqoridagi vazifalarni o'zida qamrab olgan "2021-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish konsepsiyasi" ishlab chiqildi.

Kambag'allik va qashshoqlik tushunchalarining aniq ta'rifi mavjudmi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Hozirda jahon bo'ylab kambag'allik yoki qashshoqlik tushunchalarining umumqabul qilingan hamda yagona kelishilgan ta'rifi ishlab chiqilmagan. Har bir mamlakat o'zi uchun belgilangan kambag'allik mezonidan kelib chiqib tavsiflaydi.

BMTning "Ijtimoiy himoya borasida yuqori darajadagi Butunjahon sammiti"da ta'kidlanganidek, qashshoqlik – insonning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan daromad va resurslar yetishmasligi, bundan tashqari, ochlik va to'yib ovqatlanmaslik, sog'liqni saqlash, ta'lim yoki boshqa asosiy xizmatlardan foydalanishda cheklovlarning mavjudligi, turar joyning yo'qligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashiga nisbatan aytiladi.

Shuningdek, BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasining "Kambag'allikni o'lchash bo'yicha qo'llanma"sida kambag'allikka quyidagicha ta'rif berildi: "Kambag'allik - insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo'lmasligi, jamiyatda to'laqonli ishtirok etish uchun to'siqlarning mavjudligi, bundan tashqari, oilasini boqishi va kiyintirishi, ta'lim olishi yoki kasalxonada davolanishi, biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta'minlash imkoniyatlari yetishmasligi hamda kredit olish imkoniyatining cheklanganligida namoyon bo'ladi. Shuningdek, kambag'allik bu insonlar, uy xo'jaliklari va jamoalarning ijtimoiy jihatdan chegaralanganligi, xavf-xatarlar oldida chorasizligi

hamda nochorligi sanaladi”<sup>13</sup>. Birlashgan millatlar tashkiloti 1992 yilning 12 dekabrda A-RES- 47-196-sonli rezolyutsiya qabul qilib, har yili 17 oktyabrni “Xalqaro qashshoqlikka qarshi kurash kuni”, deb e’lon qilgan.

Jahon banki tomonidan ham kambag‘allik muammosini qisqartirish muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, kambag‘allik kategoriyasi quyidagicha izohlanadi. “Kambag‘allik - ko‘p o‘lchamga ega bo‘lib, insonlarni aniq daromadlarga ega bo‘lmashidir. Bu kam daromadga ega insonlarni yashash uchun zarur bo‘lgan asosiy tovar va xizmatlarni yetarli darajada sotib ololmasligi, shuningdek, sog‘liqni saqlash va ta’limning yomonligi, toza suv va sanitariya sharoitining yomonlashib borishi, xavfsizlikni yetarli emasligini bildiradi”<sup>14</sup>. Bu ta’rifning muhim jihati shundaki, kambag‘allikning sababi sifatida yetarlicha bo‘lmagan daromadlarga e’tibor beriladi. Aholi daromadlarini kamligi yoki umuman yo‘qligi tirikchilik vositalarini sotib ololmasligini keltirib chiqaradi. Yetarlicha ovqatlanmaslik esa, kasallik hamda kambag‘allikka yo‘l ochadi. Bugungi kunda har ikki xalqaro tashkilot o‘z oldiga turli dunyoviy muammolarni xususan, jahonda kambag‘allikni qisqartirishga alohida e’tibor bermiqda.

<sup>13</sup> BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasi. “Kambag‘allikni o‘lchash bo‘yicha qo‘llanma”. 2017 yil.

<sup>14</sup> <https://ru.qwe.wiki/wiki/Pov>